



CHDPU
CHIRCHIQ DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA‘LIMI VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
ILMIY-TADQIQOT, INNOVATSIYALAR VA ILMIY-PEDAGOGIK
KADRLAR TAYYORLASH BO‘LIMI
IQTIDORLI TALABALARNING ILMIY TADQIQOT FAOLIYATINI
TASHKIL ETISH BO‘LIMI
YOSHLAR AKADEMIYASI
“GIYOHVANDLIK – JAMIYAT KELAJAGIGA TAHDID!”
MAVZUSIDAGI BIRINCHI ILMIY-AMALIY RESPUBLIKA
MIQYOSDAGI KONFERENSIYA
AXBOROT XATI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-noyabrdagi “Aholi salomatligi va millat genofondini giyohvandlik va narkojinoyatlardan samarali himoya qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-207-son farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 6-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo‘yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta‘sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-73-son Farmoni hamda mazkur Farmonga ilova bilan tasdiqlangan maqsadlar, jumladan, 6-maqsad – “Giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish sohasida ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish” sohasi doirasida zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish, shuningdek talaba-yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, giyohvandlik va turli zararli illatlarning salbiy oqibatlari to‘g‘risidagi bilim va tushunchalarni yanada mustahkamlash, yoshlarning huquqiy ongi, ijtimoiy mas‘uliyati hamda mafkuraviy immunitetini kuchaytirish, mazkur yo‘nalishda ilmiy-tadqiqot va tahliliy ishlarni rivojlantirish maqsadida Chirchiq davlat pedagogika universiteti Ilmiy bo‘limi tomonidan **joriy yilning 25-may**

kuni “**Giyohvandlik – jamiyat kelajagiga tahdid**” mavzusidagi birinchi respublika ilmiy-amaliy konferensiyani o‘tkazish rejalashtirilmoqda.

KONFERENSIYA SHO‘BALARI:

- 1. Giyohvandlikka qarshi kurashning huquqiy asoslari*
- 2. Giyohvandlikning shaxs va jamiyat salomatligiga ta’siri: tibbiy-biologik yondashuvlar*
- 3. Yoshlar orasida giyohvandlikning oldini olishning pedagogik va psixologik mexanizmlari*
- 4. Giyohvandlik va narkojinoyatchilikning ijtimoiy omillari hamda ularning oldini olish*
- 5. Giyohvandlikka qarshi kurashishda ilmiy-tadqiqot va innovatsion yondashuvlar*
- 6. Ommaviy axborot vositalari, raqamli platformalar va targ‘ibot ishlarining giyohvandlikka qarshi kurashdagi o‘rni*

KONFERENSIYANING RASMIY TILI: O‘ZBEK, RUS, INGLIZ TILLARI.

Konferensiyada talabalar, magistrlar, tayanch doktorantlar yuqorida ko‘rsatilgan sho‘balar bo‘yicha qatnashishlari mumkin. Konferensiyada ishtirok etuvchilar o‘z maqolalarini **2026-yil 23-mayga qadar** tashkiliy qo‘mitaga yuborishlari so‘raladi.

MAQOLANI RASMIYLASHTIRISH QOIDALARI:

1. Maqola va tezislar konferensiya yo‘nalishlariga oid dolzarb mavzularda, teran ilmiy tahlillarga asoslangan va **tahrir qilingan bo‘lishi talab etiladi.**

2. Anjuman materiallari elektron shaklda MS Word (doc, docx) formatida, shrift Times New Roman 14 kegl, abzas 1 sm, satrlar oralig‘i 1,15 interval, sahifalar chapdan 3 sm, pastdan va yuqoridan 2 sm, o‘ngdan 1,5 sm qoldirilgan holda bo‘lishi kerak.

3. Materiallar **3 sahifadan kam bo‘lmasligi** lozim. Maqola nomi 15 so‘zdan ortiq bo‘lmasligi; muallif ma’lumotlari maqola nomidan so‘ng bir interval pastda, sahifaning o‘ng chetida qalin harflarda berilishi, annotatsiya 5 ta gapdan oshmasligi va undan so‘ng kamida 7-8 ta kalit so‘z keltirilishi, ikki interval pastda maqola matni berilishi kerak.

4. Muallif haqida ma’lumotlar: maqola sarlavhasidan 1 interval pastda muallifning familiyasi, ismi, otasining ismi o‘qish joyi (fakultet, yo‘nalish va

